THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH

Xusinov Ibragim Ismoilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası i.f.n., professori

Email: xusinovii@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish xarajatlari hisobini avtomatlashtirish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'ri va ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy ERP, 1C, SAP, MES, IoT va Big Data kabi axborot tizimlaridan foydalanish orqali xarajatlar nazoratini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar joriy etilgan korxonalarda tannarxning aniqligi oshib, resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori darajada yaxshilanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari, ERP tizimi, SAP, 1C, IoT, MES, Big Data, avtomatlashtirish, tannarx, audit, nazorat.

Abstract. This article analyzes the role and significance of digital technologies in the automation of production cost accounting. It highlights mechanisms for improving cost control, increasing production efficiency, and enabling prompt managerial decision-making through the use of modern information systems such as ERP, 1C, SAP, MES, IoT, and Big Data. The research findings indicate that the implementation of digital technologies enhances the accuracy of cost calculation and significantly improves resource utilization efficiency within enterprises.

Key words: digitalization, production costs, ERP system, SAP, 1C, IoT, MES, Big Data, automation, cost calculation, audit, control.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль и значение цифровых технологий в процессе автоматизации учёта производственных затрат. Показаны механизмы совершенствования контроля расходов, повышения эффективности производства и оперативного принятия управленческих решений посредством использования современных информационных систем, таких как ERP, 1C, SAP, MES, IoT и Big Data. Результаты исследования свидетельствуют о том, что внедрение цифровых технологий способствует повышению точности калькулирования себестоимости и значительному улучшению эффективности использования ресурсов на предприятиях.

Ключевые слова: цифровизация, производственные затраты, система ERP, SAP, 1C, IoT, MES, Big Data, автоматизация, себестоимость, аудит, контроль.

KIRISH

Globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ishlab chiqarish jarayonlarining qanday boshqarilishiga va xarajatlar hisobi qay darajada aniq yuritilishiga bog'liq. Resurslar narxining o'zgaruvchanligi, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkablashuvi va bozor talablarining keskin o'zgarishi korxonalardan xarajatlarni boshqarishda yuqori aniqlik hamda tezkorlikni talab qilmoqda. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini an'anaviy, qo'lda yuritiladigan yoki yarim avtomatik tizimlar orqali boshqarish zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda yetarli natija bermayapti.

Raqamli texnologiyalar asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar xarajatlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, ma'lumotlarni aniq qayd etish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini berishi bilan sanoat korxonalari uchun ustuvor yo'nalishga aylangan. ERP, SAP, 1C va MES kabi integratsiyalashgan axborot tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarining har bir bosqichida xarajatlarning shakllanishini kuzatish, sarflarni normativlar bilan solishtirish, jarayonlardagi chetlanishlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini yaratadi. IoT va Big Data texnologiyalarining rivojlanishi esa ishlab chiqarish xarajatlarini chuqur tahlil qilish, sarf me'yorlarini optimallashtirish va energiya tejamkorligini oshirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan xarajatlarni qanday boshqarishiga bog'liq. Xarajatlarning noto'g'ri tasniflanishi, kechikkan ma'lumotlar, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar va ishlab



chiqarish bo'linmalari o'rtasidagi uzilishlar korxonaning nafaqat moliyaviy natijalariga, balki butun boshqaruv tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini avtomatlashtirish korxonalarning strategik maqsadlari qatorida turadi.

Raqamli tizimlarning joriy etilishi korxonaning ichki audit tizimini ham transformatsiya qiladi. Avtomatik shakllanuvchi audit izlari, elektron hujjatlashtirish, real vaqt monitoringi va analitik hisobotlar ichki nazoratni mustahkamlaydi, audit jarayonini tezlashtiradi hamda xatolarni aniqlashni osonlashtiradi. Bu esa xarajatlar ustidan doimiy nazoratni kuchaytirib, tannarxni samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu bois mazkur maqolada raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini avtomatlashtirishning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari, texnologik yechimlari va ularning korxona samaradorligiga ta'siri ilmiy-uslubiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ERP, MES, IoT va Big Data kabi texnologiyalarni korxonalarga joriy etishning afzalliklari, ularning xarajatlarni boshqarishdagi o'rni hamda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishdagi roli batafsil yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish va ularni avtomatlashtirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar jahon tajribasida shakllangan turli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar asosan xarajatlarni tasniflash, me'yorlashtirish, nazorat mexanizmlarini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar — C. Drury, R. Kaplan va S. Horngren kabi olimlar ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishning nazariy asoslarini chuqur yoritib, ularni iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Drury o'z asarlarida xarajatlarning funksional taqsimoti, ularning bevosita va bilvosita xarajatlar sifatida tasnifi, ustama xarajatlarni taqsimlash modellari hamda faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimining (ABC) afzalliklarini yoritadi. Kaplan va Cooper esa xarajatlarni raqamli muhitda hisoblashning ustuvor ahamiyatini ko'rsatib, integratsiyalashgan tizimlarning boshqaruv samaradorligini oshirishini ilmiy asoslaydilar.

Axborot texnologiyalarining ishlab chiqarish hisobiga tatbiqu bo'yicha IoT, Big Data, ERP va MES kabi tizimlar yuzasidan xalqaro miqyosda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. IEEE, Elsevier va Springer kabi ilmiy bazalardagi maqolalarda raqamlashtirishning ishlab chiqarish samaradorligi, energiya tejamkorligi hamda xarajatlarni optimallashtirishdagi roli batafsil tahlil qilingan. Xususan, IoT texnologiyalari yordamida uskunalar holatini monitoring qilish, real vaqt ma'lumotlarini yig'ish va ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarni aniqlash imkoniyati mavjudligi ilmiy jihatdan asoslangan. Big Data tahlili esa katta hajmdagi ma'lumotlar asosida xarajat tarkibini chuqur o'rganish, tendensiyalarni aniqlash va prognoz modellarini yaratishga xizmat qilishi qayd etilgan.

ERP tizimlariga oid ilmiy manbalar (SAP, Oracle, Microsoft Dynamics bo'yicha ilmiy nashrlar) ushbu tizimlarning korxonaning barcha bo'limlarini yagona axborot maydonida birlashtirishi, bu esa xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirishi va xatoliklarni kamaytirishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ERP tizimlari bilan ishlaydigan korxonalarda xarajatlar hisobining aniqligi 30–40% ga oshadi, jarayonlarning shaffofligi esa sezilarli darajada yaxshilanadi.

Mahalliy adabiyotlarda ham ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish masalalari ilmiy asosda ko'plab tadqiq etilgan. O'zbekistonlik olimlar — A.A. Karimov, A.X. Pardayev, B.A. Xasanov, N.B. Abdusalamova, F.R. Islomov va A.Z. Avloqulov kabi tadqiqotchilar buxgalteriya hisobi, audit va xarajatlarni boshqarish bo'yicha ilmiy qarashlar ishlab chiqqan. Ularning ishlarida milliy buxgalteriya standartlari, xarajatlarning hisob siyosatiga mos tashkil etilishi, ishlab chiqarishning normativ me'yorlari va nazorat tizimi samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar bayon qilingan.

Karimov va Avloqulovning raqamli audit hamda xalqaro standartlar bo'yicha tadqiqotlari raqamli texnologiyalar hisob jarayonlarini ancha soddalashtirishi va ichki auditni avtomatlashtirish orqali nazorat sifatini yangi bosqichga olib chiqishini ko'rsatadi. Jo'rayev va Xolmurodovning asarlarida esa ishlab chiqarish xarajatlari hisobida avtomatlashtirishning zaruriy shartlari, me'yorlashtirish tizimini modernizatsiya qilish hamda korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlarini keng joriy etishning iqtisodiy afzalliklari yoritilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan Milliy buxgalteriya hisobi standartlari, Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori va auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi kabi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yagona metodologik asosda yuritilishini belgilaydi. Ushbu hujjatlar korxonalar uchun texnologik jarayonlarni tartibga solish, xarajatlar tarkibini aniq shakllantirish va ularni avtomatlashtirish uchun huquqiy poydevor yaratadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimini takomillashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu texnologiyalar qo'llanilgan korxonalarda xarajatlar ustidan nazorat kuchayadi, hisobotlarning aniqligi ortadi hamda boshqaruv qarorlari samaradorligi sezilarli darajada oshadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini avtomatlashtirish bo'yicha ma'lumotlarni korxona ichki hisobotlari, dasturiy ta'minot loglari, texnik hujjatlar va ilmiy manbalardan yig'ishga tayanadi. Olingan ma'lumotlar jarayon tahlili, raqamli yechimlar samaradorligini solishtirish, vaqt va xarajat tejash ko'rsatkichlarini baholash orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar joriy etilgan sanoat korxonalarining 2020–2024-yillardagi faoliyati o'rganilib, xarajatlar hisobi va ishlab chiqarish jarayonlarida kuzatilgan o'zgarishlar tahlil qilindi. Olingan natijalar raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniq ko'rsatdi.

Avvalo, avtomatlashtirilgan tizimlarning xarajatlar hisobidagi xatoliklarni sezilarli darajada kamaytirgani aniqlandi. Raqamli tizimlarga o'tishdan oldin xarajatlar qayd etish jarayonida xatolar ulushi o'rtacha 14–15 foizni tashkil etgan bo'lsa, avtomatlashtirishdan keyin bu ko'rsatkich 4–5 foiz darajasigacha qisqargan. Bu inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamayganini va hisob ma'lumotlarining ishonchlili oshganini anglatadi.

Materiallar sarfini nazorat qilishda IoT va MES tizimlarining samaradorligi yaqqol namoyon bo'ldi. Sensorlar yordamida real vaqt rejimida olingan ma'lumotlar ishlab chiqarish bo'linmalarida yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qildi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, material yo'qotishlari 8–12 foizga, energiya sarfi esa 7–15 foizga qisqargan. Bu jarayonlar korxonada resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini yaratdi.

Ustama xarajatlarni taqsimlash tizimida ham sifat o'zgarishlari kuzatildi. Avtomatlashtirishdan oldin ustama xarajatlarning uchdan bir qismi obyektlarga noto'g'ri biriktirilgan bo'lsa, raqamli boshqaruv tizimlaridan so'ng bu ko'rsatkich 7–9 foizgacha pasaygan. Bu xarajatlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha to'g'ri taqsimlanishiga hamda tannarx kalkulyatsiyasining aniqligiga olib keldi.

Raqamlashtirish ishlab chiqarish tannarxiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani ham aniqlandi. Umumiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilganidan so'ng mahsulot tannarxi o'rtacha 8,5–12 foizgacha kamaygan, mehnat xarajatlari 11 foizga qisqargan va ishlab chiqarish samaradorligi 16–21 foizga oshgan. Bu korxona rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirdi.

Ichki audit jarayonlaridagi o'zgarishlar ham e'tiborga molik. Elektron audit izlari (audit trail) joriy etilgach, tekshiruvlar uchun sarflanadigan vaqt 40–55 foizgacha qisqargan, auditorlik aniqligi esa 27 foizga oshgan. Avval bir necha kun talab qilgan hujjatlar yig'ish jarayonlari endilikda avtomatik ravishda bir necha daqiqada bajariladigan bo'ldi. Bu ichki nazorat tizimining sifatini sezilarli darajada oshirdi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligini ham yaxshiladi. Avtomatlashtirilgan analitik modul yordamida tahliliy hisobotlar o'rtacha 5–7 kun o'rniga 1–2 soat ichida shakllantirildi. Bu korxonalarga bozor o'zgarishlariga tezkor javob berish imkonini yaratdi (1-jadval).

1-jadval. Xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha to'liq takliflar

Xarajat turi	Aniqlangan muammo	Taklif va yechim	Kutiladigan natija
Xom-ashyo va material xarajatlari	Material yo'qotishlari yuqori, nazorat sust	IoT sensorlari orqali monitoring; me'yorlarni qayta ko'rib chiqish	Material sarfi 8–12% kamayadi
Energiya xarajatlari	Uskunalar energiya samaradorligi past	Energiya nazorati dasturi; avtomatik o'chirish tizimlari	Energiya tejallishi 7–15% oshadi
Mehnat xarajatlari	Qo'lda hisob-kitob xatoliklari ko'p	1C/ERP asosida elektron vaqt qaydnomasini joriy etish	Mehnat xarajatlari 8–11% qisqaradi
Ustama xarajatlari	Bilvosita xarajatlarni noto'g'ri taqsimlash	SAP/ERP tizimida avtomatik taqsimlash algoritmi	Tannarx aniqligi 20–25% oshadi
Asbob-uskunalar xarajatlari	Rejasiz ta'mir va ortiqcha xarajatlar	Predictive maintenance joriy etish	Ta'mirlash xarajatlari 10–18% kamayadi
Amortizatsiya xarajatlari	Uskuna yuklamasi noto'g'ri baholangan	IoT orqali real yuklama monitoringi	Eskirish hisobining aniqligi oshadi
Transport va logistika xarajatlari	Rejalashtirishdagi nomutanosiblik	GPS monitoringi, logistika optimizatsiyasi	Transport xarajatlari 5–9% qisqaradi
Davr xarajatlari	Ma'muriy sarflarning oshishi	Elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish	Davr xarajatlari kamayadi
Audit xarajatlari	Hujjat yig'ish ko'p vaqt oladi	Elektron audit izi (audit trail)	Audit vaqti 40–55% qisqaradi
Tannarx kalkulyatsiyasi	Kechikish va xatoliklar mavjud	ERP/MES tizimida avtomatik kalkulyatsiya moduli	Tannarx aniqligi 10–15% oshadi



Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlari hisobini samarali boshqarish, nazorat qilish va optimallashtirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Avtomatlashtirish orqali xarajatlarning aniqligi ortgan, resurslardan foydalanish samaradorligi oshgan, tannarx kamaygan va boshqaruv qarorlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish xarajatlari hisobiga joriy etish korxonalarning iqtisodiy barqarorligi, boshqaruv samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Raqamli tizimlar asosida avtomatlashtirilgan xarajatlar hisobi nafaqat ma'lumotlarni qayd etish jarayonini soddalashtiradi, balki tashkiliy-boshqaruv jarayonlarining butun zanjiriga sifat jihatdan yangicha yondashuvni ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ERP, SAP, 1C, MES, IoT va Big Data texnologiyalari xarajatlarning shakllanish bosqichida yuqori aniqlik yaratadi, jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini beradi hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi. Mazkur texnologiyalar yordamida korxonada xarajatlar hisobi tizimining shaffofligi oshadi, sarf me'yorlaridan chetlanishlar tezkor aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv qarorlari samarali shakllantiriladi.

Raqamlashtirish jarayoni natijasida moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi keskin oshgani, material va energiya yo'qotishlarining kamaygani hamda mahsulot tannarxining pasaygani kuzatildi. Bu ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish va resurslarni tejamkor boshqarishning amaliy natijalarini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, ustama xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, xarajatlarni moddalarga ajratish va hisob-kitobning yagona metodologiya asosida yuritilishi raqamli tizimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi hamda korxona ichki hisob siyosatining izchilligini ta'minlaydi.

Ichki audit tizimining transformatsiyasi ham tadqiqotning muhim natijalaridan biri bo'ldi. Avtomatlashtirilgan audit izlari auditorlarga ma'lumotlar bilan ishlashni osonlashtirib, tekshiruv jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Auditorlik faoliyatining aniq va obyektiv bo'lishi korxonada ichki nazorat tizimining kuchayishiga olib keladi, bu esa xarajatlar ustidan joriy va strategik nazoratning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida xarajatlar hisobining avtomatlashtirilishi korxonaning operativ boshqaruvini yaxshilaydi, ma'lumotlar oqimini tizimli tashkil qiladi, sarflar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini oshiradi. Bu sanoat korxonalarining bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash, innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Raqamlashtirishning iqtisodiy afzalliklari va boshqaruv samaradorligiga qo'shgan hissasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlari hisobini avtomatlashtirish kelajakda barcha yirik va o'rta korxonalar uchun majburiy zarurat sifatida shakllanadi. Shunday ekan, korxonalar raqamli transformatsiya jarayonlarini tizimli ravishda joriy etishlari va hisob tizimlarini zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiya qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz/acts/-2931253>
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сонли қарори билан тасдиқланган "Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги низоми. <https://lex.uz/docs/264422>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>
4. Horngren C.T., Sundem G.L., Stratton W.O. Introduction to Management Accounting. Prentice Hall, 2002.
5. Kaplan R.S., Atkinson A.A. Advanced Management Accounting. Prentice Hall, 1998.
6. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019-yil.
7. Abdusalomova N. Cost Accounting and Financial Health: Analysis of Cost Reduction Policy Effect in Selected Enterprises of Metallurgy Industry in Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business, 2017.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>